

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

AMONOVA NAZOKAT UTKUROVNA

**INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING BOZOR
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по-
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy(PhD) on
economical sciences**

Amonova Nazokat Utkurovna

Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini
takomillashtirish..... 3

Амонова Назокат Уткуровна

Совершенствование рыночных механизмов финансирования
инвестиционной деятельности..... 27

Amonova Nazokat Utkurovna

Improving Market Mechanisms of Financing Investment..... 53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 58

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

AMONOVA NAZOKAT UTKUROVNA

**INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING BOZOR
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTORFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2022.4.PhD/Iqt.2558 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Karimov Norboy G'aniyevich
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Tashmuradova Buvsara Egamovna
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xusanov Durbek Nishonovich
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.1.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «13» 07 soat 16⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-01-49, (99871) 239-43-51. e-mail: tdiu@tdiu.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (13/6 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, Tel: (99871) 239-28-72; 239-01-49, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: tdiu@tdiu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «27» 06 kuni tarqatildi.

(2023-yil «27» 06 daqi 41-raqamli reestr bayonnomasi)



M.P. Eshov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
a'zosi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, i.f.d., professor

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raji, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda global raqobatning kuchayib borishi milliy darajadagi iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun faqat jang'arish va investitsiyalar faoliyatining yuqori sur'atlari bilan bir qatorda investitsiyalarni moliyalashtirishning tashqi manbalarini jalb etishning ahamiyatini oshirmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarining samarali diversifikatsiyalanmagani, xususan, yalpi investitsiyalarda aholi mablag'lari hissasining yetarli emasligi investitsiyalarni moliyalashtirishning tashqi manbalarini jalb etish va ularni bozor mexanizmlari orqali takomillashtirishni obyektiv zaruratga aylantirmoqda. Pandemiya sharoitida yirik iqtisodiyotga ega mamlakatlarda ishlab chiqarish va iste'mol hajmlarining keskin qisqarishi, global ishlab chiqarish zanjirlari va savdo aloqalarining izdan chiqishi, dunyo moliya bozorlarida xomashyo tovarlari narxi pasayishi evaziga iqtisodiyotni qayta tiklash uchun yirik hajmdagi moliyaviy mablag'lar sarflanishi mamlakatda inflyatsiya sur'atining keskin o'sishi va ishsizlik darajasini oshishiga olib kelmoqda. Bu holat mamlakat YalMga o'z ta'sirini ko'rsatib, "...har oy dunyo mamlakatlari YalMning 2 foizgacha pasayishiga olib kelishi mumkin"¹. Koronavirus pandemiyasi va dunyodagi iqtisodiy inqirozlar sababli dunyoning yetakchi davlatlarida inqirozga qarshi kurashishda investitsiya dasturlarini ishlab chiqib, mazkur dasturlarda ko'zda tutilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirish mexanizmlari shakllantirildi.

Hozirgi kunda jahonning rivojlanayotgan mamlakatlarida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish amaliyotini bozor mexanizmlari orqali takomillashtirish, xususan, ularning yangi moliyalashtirish manbalaridan foydalanish darajasini oshirish, kompaniyalar investitsion faoliyatini moliyalashtirish amaliyotiga innovatsion usullarni joriy etishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur mamlakatlar amaliyotida inflyatsiya darajasi yuqoriligi hamda investitsion muhit jozibadorligi nisbatan pastligi, moliyalashtirish manbalarining barqaror emasligi natijasida korxonalar va tashkilotlarning investitsion faoliyatini moliyalashtirish amaliyotiga ta'sir etayotgan salbiy jihatlarni bartaraf etish ilmiy tadqiqotning muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida mamlakat xalqaro reytinglar tizimida munosib o'rinlarni egallab bormoqda, xususan, "...mamlakatimiz xorijiy investitsiyalar oqimi reytingida 201 mamlakatlar orasida 103 o'rinni egallagan"². Bundan tashqari dunyo mamlakatlarining investitsiya faoliyati muhitini ifodalaydigan ko'pgina asosiy indekslarida mamlakat hamon o'z o'rnini topmagan. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida"gi farmoni hamda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnika va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgartishlarni amalga oshirish ustuvor

¹ Chakraborty I., Maity P. COVID-19 outbreak: Migration, effects on society, global environment and prevention. International Journal Science of the Total Environment 728 (2020) 138882

² <http://Worldbank.org> сайти маълумотлари

vazifalar sifatida belgilab berildi. Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash investitsiyalarni moliyalashtirishni ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2018-yil 1-avgustdagi PF-5495-son "O'zbekiston Respublikasi investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 14-maydagi PF-5717-son "O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirishning sifat jihatidan yangi tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2019-yil 28-yanvardagi PF-5643-son "Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 2-iyundagi PF-6003-son "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'mini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida"gi farmonlari, 2019-yil 28-yanvardagi PQ-4135-son "O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi, 2018-yil 31-maydagi PQ-3756-son "Imtiyozlar va preferentsiyalar berish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda soha taraqqiyotiga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni hal etishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Investitsiya faoliyatni moliyalashtirishning nazariy-ilmiy, uslubiy va amaliy muammolari R.Stobaugh, R.Stoun, N.Abykaev, V.D.Andrianov, B.C.Bard, S.N.Buzulukov, I.N.Drogobyskiy, S.Ye.Ishchetova, A.B.Bel'skiy, N.Berzon, Yu.I.Vernadskiy, O.V.Tereshenko, V.V.Bocharov, E.I.Krylov, V.M.Vlasova, M.G.Yegorova, D.A.Lavrik, M.M.Prusak, N.M.Sabitova, V.Igoshin, V.Kiseleva, Ya.Melkumov, S.Neshitoy, G.Nikolskaya, D.Tobin, V.Savelev singari xorijlik olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan³. Investitsion faoliyatni moliyalashtirishning bozor

³ Stobaugh R. How to Analyze Foreign Investment Climates. -Harvard Business Review, September October 1969.- p.189. Stoun R. Social Account at the Regional Level: a Survey. In: Regional Economic Planning. Techniques of Analysis for Less Developed Areas / Ed. By W.Isard and J.Camberland. OECD. Paris, 1961; Abykaev N. Инвестиционный потенциал и экономический рост (методологический аспект) // Экономист. 2000. - № 6. - С. 58-66.; Андрианов В.Д. Россия: экономический и инвестиционный потенциал. - М.: ОАО Издательство «Экономика». 1999. - 662с.; Bard B.C., Бузулуков С.Н., Дрогобыцкий И.Н., Щепетова С.Е. Инвестиционный потенциал Российской экономики. - М.: Издательство «Экзамен», 2003. - 320 с.; Бельский А.В. Анализ инвестиционной привлекательности регионов // Сборник научных трудов: Региональная экономика проблемы и перспективы. - М., 2003. -320 с.; 16. Берзон Н. Формирование инвестиционного климата в экономике. // Вопросы экономики. 2001. -№ 7. - С. 104-114.; Вернадский Ю.И., Терещенко О.В. Интеграция финансового и промышленного капитала как фактор роста инвестиционного потенциала реального сектора экономики. // Регион: экономика и социология. 2002. - № 1. - С. 97-102.; Бочаров В.В. Финансово-кредитные методы регулирования рынка инвестиций. - М.: Финансы и статистика, 1993 - 158 с.; Крылов Э.И., Власова В.М., Егорова М.Г. и др. Анализ финансового состояния и инвестиционной привлекательности предприятия. - М.:

mexanizmlarining nazariy, uslubiy va amaliy jihatları o'zbekistonlik iqtisodchi olimlar S.S.G'ulomov, A.T.Yusupov, D.G'.G'ozibekov, N.X.Jumayev, O.K.Iminov, N.G'.Karimov, F.O'.Dodiyev, N.R.Qo'ziyeva, N.X.Xaydarov, Sh.Mustafaqulov, B.K.Tuxliyev, R.B.Saidov, E.I.Nosirov va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan⁴. Alohida ta'kidlash joizki, hozirgi sharoitda mamlakatda olib borilayotgan faol investitsiya siyosatining istiqboldagi ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi ko'p jihatdan uni moliyalashtirishni xorijiy ilg'or tajribalarga asoslangan holda bozor mexanizmlari asosida yanada takomillashtirish bo'yicha tizimli qarorlar qabul qilishga bog'liq.

Ammo iqtisodiy globallashev jarayoni mamlakatning iqtisodiy o'sishi va barqarorligini ta'minlashning asosiy omili hisoblangan bozor mexanizmlari asosida investitsiya faoliyatiga moliyaviy mablag'larni yo'naltirishni talab etadi. Har qanday investitsiyaning ijobiy natijasi uni moliyalashtirish manbalarini ta'minlashga bog'liq. Lekin investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini shakllantirish bozor mexanizmlari orqali takomillashtirish tarmoqlar kesimida rivojlantirish, mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni yanada keng jalb etish va rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, hududlar investitsiya salohiyatini baholash, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini kengaytirish va ularda samarali foydalanish bilan bog'liq muammolar yetarlicha tadqiq etilmagan. Bu, o'z navbatida, ushbu tadqiqot ishining dolzarbligini ko'rsatadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va

Финансы и статистика, 2003. 192 с.; Лаврик Д.А. Диагностика региона основа для эффективного размещения инвестиций // Сборник научных трудов: Управление экономикой: методы, модели, технологии. – Уфа: УФАТУ, 2001. – 246 с.; Прусак М.М. Стратегия региона: инвестиции в экономику // Финансы. 2001. – № 1. – С. 6-8.; Сабитова Н.М. О понятии финансового потенциала региона и методологии его оценки. // Финансы. 2003. – № 2. – С. 63-65.; Савельев В. Инвестиционный потенциал регионов: региональный прогноз. // Обозреватель Observer. – 2003. – № 3. – С. 83-89.

⁴ Гулямов С.С. Моделирование социально-экономического развития территориально-промышленных комплексов. – Т.: Фан, 1980.; Гозибеков Инвестицияларни молиялаштириш масалалари. – Т.: Молия, 2003 йил. 14-15 б.; Жумасев Н.Х. Ўзбекистонда валюта муносабатларини тартибга солиш методологиясини такомиллаштириш. и.ф.д. илм. дар. ол.уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 35 б.; Иминов О.К. Бозор иқтисодиди шароитида кредит тизими ва уни такомиллаштириш йўллари. и.ф.д. илм. дар. ол.уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2002. – 38 б.; Гозибеков Д.Ф. Инвестицияларни молиялаштириш муаммолари. – Т., 2002. и.ф.д. дисс. автореф. 11-14 б. Каримов Н.Ф. Иқтисодий интеграциялашув шароитида инвестиция фаолиятини молиялаштиришнинг бозор механизмларини жорий этиш масалалари. – Т.: Фан ва технология, 2007. – 240 б.; Жумасев Н.Х. Камабағаллик: Даромад тенгсизлигими ёки таълим олишга эътиборсизлик. Мақола. //Халқ сўзи, 2020 йил 25 июнь. Додиев Ф.У. Инвестицион фаолиятини молиявий рағбатлантириш: иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. – Тошкент, 1998.-22 б.; Кузиева Н.Р. Хорижий инвестициялар иштиракидаги корхоналар фаолиятини рағбатлантиришнинг молия-кредит механизмини такомиллаштириш йўналишлари. Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2008; Хайдаров Н.Х. Иқтисодий эркинлаштириш шароитида корхоналар инвестицион фаолиятидаги молия-солик муносабатларини такомиллаштириш масалалари (хорижий инвестициялар корхоналар мисолида): иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. – Тошкент, 2003. – 22 б.; Мустафақуллов Ш.И. Ўзбекистонда инвестицион муҳит жозибadorлигини оширишнинг илмий-усlubий асосларини такомиллаштириш. и.ф.д. (DSc). дисс. автореферати. – Т., 2017.; Тухлиев Б.К. "Инвестицияларни молиялаштириш механизмини такомиллаштириш" мавзусидаги дисс. Автореферати. – Т., 2021.; Саидов Р.Б. Ўзбекистон Республикаси уй ҳужжалиларида инвестицияларни такомиллаштириш. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2011.-18 б.; Гозибеков Д.Ф., Носиров Э.И. Ўзбекистон иқтисодидидаги хорижий инвестицияларни жалб қилиш. Рисола. – Т.: Iqtisod-moliya, 2007. – 92 б.

prognozlashtirilishini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyotlarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda bozor mexanizmlarining zarurligi va funktsional elementlarining nazariy asoslarini tadqiq qilish;

investitsiyalarni moliyalashtirishning manba va usullarini shakllantirish asoslarini tahlil qilish;

investitsiya faoliyatini moliyalashtirish bozor mexanizmlarining huquqiy asoslarini o'rganish;

O'zbekistonda investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda bozor mexanizmlarining hozirgi kundagi holatini tahlil qilish;

investitsiyalarni moliyalashtirishning ilg'or xorij tajribasini o'rganish va ularni O'zbekiston amaliyotida qo'llash imkoniyatlarini yoritib berish;

investitsiyalarni moliyalashtirishning mamlakat iqtisodiyoti rivojiga ta'sirini ekonometrik tahlillar orqali aniqlash;

milliy iqtisodiyotimizda investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etishdagi muammolarni aniqlash;

mamlakatimizda investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti O'zbekistonda investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini investitsion faoliyatni moliyalashtirishning bozor mexanizmlari jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, monografik tadqiqot, dinamikada o'rganish, ma'lumotlarni guruhlash, taqqoslash, korrelyatsion va regression tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qimmatli qog'ozlar bozorida dividend va foiz tarzida keladigan daromadlarni soliqdan ozod qilish asosida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish taklifi ilmiy asoslangan;

davlat aktivlarini xususiylashtirishda savdoga qo'yilgan aktivlarning boshlang'ich narxini e'lon qilmagan hamda professional tashkilotlarni jalb qilgan holda talabgorlarni muzokaralarga ommaviy taklif qilish yo'li bilan sotish taklifi asoslangan;

davlat mulkini sotib olgan investor uchun barcha xavf-xatarlarni hisobga olgan holda, sotilgan davlat aktivlarining bir qismini investor tomonidan alohida shartlar asosida kredit olish uchun garovga qo'yish taklifi asoslangan;

korxonalar faoliyatini investitsiya majburiyatlari bajarilishini raqamlashtirish asosida samarali monitoringni tashkil etish orqali investitsiyalarning moliyaviy samaradorligini oshirish taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda bozor mexanizmlarining zarurligi va funksional elementlarining nazariy asoslari yoritib berilgan;

investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda bozor mexanizmlarining tashkiliy va huquqiy asoslari tahlil qilingan;

investitsiya faoliyatini bozor mexanizmlari orqali moliyalashtirishning ilg'or xorij tajribalari va ularni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari o'rganilgan;

investitsiyalarni bozor mexanizmlari orqali moliyalashtirishning iqtisodiyot rivojiga ta'sirining ekonometrik tahlili amalga oshirilgan;

mamlakatda investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etishdagi muammolar o'rganilib, moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Olingan natijalarning ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil jarayonida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy ma'lumotlari, muayyan me'yoriy hujjatlar, tegishli idora va tashkilotlarning hisobotlari va O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hisobotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi hamda ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan amaliyotda joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati investitsiya faoliyatini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqali istiqbolda makroiqtisodiy barqarorlik va milliy iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni oshirish jarayonini nazariy-metodologik va uslubiy jihatdan takomillashtirish, ulardan maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar, ilmiy fikr-mulohazalar va nazariy g'oyalardan sohani samarali rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish, ushbu soha xodimlarining malakasini oshirish hamda oliy o'quv yurtlarining "Investitsiya faoliyati", "Investitsiya siyosati", "Investitsiya va innovatsiyalar", "Investitsiyalarni boshqarish", "Qat'iy daromadli investitsiyalar" fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

qimmatli qog'ozlar bozorida dividend va foiz tarzida keladigan daromadlarni soliqdan ozod qilish asosida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-yanvardagi "Kapital bozorini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-90-son qarorida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2022-yil 2-dekabrda 08-71/4144-son ma'lumotnomasi). Natijada, berilgan imtiyoz orqali kapital bozorini qo'llab-quvvatlashda investorlar ixtiyorida 50,0 mlrd. so'm qo'shimcha daromad olishga erishilgan;

davlat aktivlarini xususiyashtirishda savdoga qo'yilgan aktivlarning boshlang'ich narxini e'lon qilmagan hamda professional tashkilotlarni jalb qilgan

holda talabgorlarni muzokaralarga ommaviy taklif qilish yo'li bilan sotish taklifi O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2022-yil 2-dekabrda 08-71/4144-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida 70 ta davlat aktivini mazkur uslubda sotilishi belgilanib, shundan 25,7 foizi sotilgan;

davlat mulkini sotib olgan investor uchun barcha xavf-xatarlarni hisobga olgan holda, sotilgan davlat aktivlarining bir qismini investor tomonidan alohida shartlar asosida kredit olish uchun garovga qo'yish taklifi O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2022-yil 2-dekabrda 08-71/4144-son ma'lumotnomasi). Buning natijasida, investorlarga sotilgan 5,9 trln. so'mlik obyektlar hisobiga kreditdagi baholashni (20 foiz chegirma) hisobga olgan holda 4,8 trln. so'm jalb qilish imkonini bergan;

korxonalar faoliyatini investitsiya majburiyatlari bajarilishini raqamlashtirish asosida samarali monitoringni tashkil etish orqali investitsiyalarning moliyaviy samaradorligini oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2022-yil 2-dekabrda 08-71/4144-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida investorlar tomonidan mamlakat investitsiyalarning moliyalashtirish hajmi oshib, 2022-yilda 112 nafar tadbirkorning murojaatiga asosan 1,7 trln. so'mlik investitsiya majburiyatlarini bajarish muddati uzaytirilgan, shuningdek, 323 ta obyekt to'liq ishga tushirilib, 1,6 trln so'm hajmida investitsiya kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy g'oya va xulosalari 7 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan mahalliy ilmiy nashrlarda 5 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, sakkizta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya asosiy matnining hajmi 129 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda bozor mexanizmlarining nazariy-huquqiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda bozor mexanizmlarining zarurligi, funksional elementlarining nazariy asoslari, investitsiyalarni moliyalashtirishning manba va usullarini shakllantirish asoslari

hamda investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarining huquqiy asoslariga daxldor natija va xulosalar shakllantirilgan. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek: "Qulay investitsiya muhitini yaratish bo'yicha amalga oshirgan islohotlarimiz natijasida so'nggi 5 yilda iqtisodiyotimizga kirib kelgan xorijiy investitsiyalar hajmi 10 baravar oshib, qariyb 40 milliard dollarni tashkil etdi. Biz 10 yil ichida yalpi ichki mahsulot hajmini hozirgidan ikki barobarga oshirishni maqsad qilganmiz. Bunga erishish uchun bizda xohish-iroda ham, imkoniyat ham yetarli. O'z oldimizga qo'ygan bunday yuksak marralar uchun sarmoyalar hajmini kelgusi 5 yilda 120 milliard dollarga yetkazish, jumladan, kamida 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalar jalb qilishni hisob-kitob qilganmiz. Ushbu investitsiyalarni, eng avvalo, sanoat sohasini modernizatsiya va transformatsiya qilish, ishlab chiqarish, kommunal va transport infratuzilmasini jadal rivojlantirishga yo'naltirish uchun aniq loyihalar va dasturlarimiz bor. Shuningdek, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi davlat qaramog'idagi an'anaviy sohalarga ham xususiy investitsiyalar jalb qilish kun tartibimizda turadi"⁵.

Mazkur bobda investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmlari bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari tadqiq etilib, ularga nisbatan mualliflik yondashuvlari bildirilib, mualliflik ta'rifi shakllantirildi. Xususan, olib borilgan tadqiqotlarga asosan "investitsiya", "investitsiya faoliyati", "investitsiya faoliyatini moliyalashtirish" singari iqtisodiy terminlar turlicha talqinda tadqiq etilganligini ko'rish mumkin. Jumladan xorijlik iqtisodchi olim A.V.Pikulkinaning fikricha, "investitsiyalar mintaqa potentsialining iqtisodiy rivojlanishida va uning iqtisodiyotining dinamik faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Investitsiya oqimlarining ortib borayotgan hozirgi tendentsiyasi sharoitida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish yanada muhimroq bo'ladi"⁶.

Muallifning fikricha, investitsiya tushunchasiga keng ta'rif berilgan bo'lib, unda moliyaviy resurslardan samarali foydalanishga e'tibor qaratilgan bo'lib, investitsiya faoliyatini moliyalashtirish jihatlariga e'tibor qaratilmagan.

Shuningdek ta'kidlash joizki, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish muammosining maqbul yechimi dasturiy faoliyatni amalga oshirish orqali yanada rivojlantirishda investitsiya resurslarining manbalarini shakllantirish bo'ladi. Investitsiya resurslarini to'plashni amalga oshirish jarayonida ularni mintaqadagi vaziyatni sezilarli o'zgarishlarga erishishga imkon beruvchi uzoq muddatli, strategik xarakterdagi obyektlarga yo'naltirish kerak. Shuning uchun iqtisodiy mexanizmining eng yuqori multiplikativ ta'sirga ega qismlariga ta'sir qiluvchi investitsiya loyihalarini moliyalashtirish maqsadga muvofiq. Shuning uchun, investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlari tadqiq etish doirasida xorijlik va mahalliy olim iqtisodchilarning moliyalashtirishning usullari to'g'risidagi fikrlarini o'rganib chiqish maqsadga muvofiq. Xususan, L.A.Gadjimuradovning fikriga ko'ra, "investitsiyalarni moliyalashtirishning asosiy usullariga quyidagilar kiradi: o'zini-o'zi moliyalashtirish, aksiyalarni chiqarish orqali moliyalashtirish, kredit orqali moliyalashtirish, lizing orqali moliyalashtirish, aralash moliyalashtirish, loyihaviy moliyalashtirish" dir.

⁵ <https://tuzatuz/posts/prezident-shavkat-mirziyoyevning-ozbekiston-respublikasi-prezidenti-luzundagi-horizmiy-investorlar-kengashining-birinchi-yalpi-mazhisidagi-nutq> 426372

⁶ Пикудькина А.В. Экономика муниципального сектора / под ред. – М., 2017. С. 15.

Muallif olib borgan tadqiqotlar asosida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlarning fikrlari quyidagi jadvalda umumlashtirildi.

I-jadval

Iqtisodchi olimlar tomonidan investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlari bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar⁷

| Mualliflar | Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlari bo'yicha bajarilgan ilmiy ishlar |
|--|--|
| V.N. Yedronova D.O. Mastakova | Investitsiyalarni qarz orqali moliyalashtirish – kreditorlar va investitsiya faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlar o'rtasidagi ishlab chiqarishni kengaytirish, uni modernizatsiya qilish, texnologik rivojlantirish, qayta jihozlash, yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish uchun kreditor mablag'larini ajratish va ulardan foydalanish bo'yicha iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir. |
| A.I. Borovskiy ⁸ | Moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmlari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin: <ul style="list-style-type: none"> *o'zini-o'zi moliyalashtirish (foйда yoki amortizatsiya); *muddatsiz moliyalashtirish mexanizmlari (aksiyalarni chiqarish yoki ularni depozit tilxatlari sifatida rasmiylashtirish); *qimmatli qog'ozlar orqali qarз moliyalashtirish mexanizmlari (obligatsiya, veksel va boshqalar) *bank kreditlari mexanizmi (investitsiyaviy kreditlar, loyihaviy moliyalashtirish) *moliyaviy lizing mexanizmlari. |
| R.Chen, S. El Ghoul, O.Guedhami, H.Wang | Davlatning mulkdor faoliyatida mavjudligi investitsiyalarning investitsiya imkoniyatlariga sezgirligini zaiflashtiradi va shu bilan investitsiyalarning samarasizligini oshiradi hamda xorijiy investorning mavjudligi, aksincha, investitsiyalarning sezgirligi va samadorligi darajasini oshiradi. |
| N.G'.Karimov ⁹ | Investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmlari mazmunining asosini quyidagilar tashkil etadi: <ul style="list-style-type: none"> - qimmatli qog'ozlar bozori orqali moliyalashtirish; - xorijiy investitsiyalar orqali moliyalashtirish; - tijorat banklari va xalqaro moliya institutlarining mablag'laridan ulush qo'shish orqali moliyalashtirish mexanizmi yoki kredit liniyalari orqali moliyalashtirish; - sindikatlashgan kreditlar asosida moliyalashtirish mexanizmi; - investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish mexanizmi; - venchurlar moliyalashtirish; - korporativ moliyalashtirish; - lizing munosabatlari orqali moliyalashtirish mexanizmi. |
| Muallif ta'rifi | Mustaqil ravishda yoki moliya tashkilotlarini jalb etgan holda ulushda ishtirok etish yoki qarз munosabatlarini nazarda tutuvchi mexanizmlar, jumladan: <ul style="list-style-type: none"> - qimmatli qog'ozlarni joylashtirish; - ulushni oshirish; - lizing; - qarз; - loyihaviy moliyalashtirish; - an'anaviy va sindikatlashgan kredit, jumladan kreditlashda ishtirok etish kelishuvi orqali investitsiya resurslarini bozor tamoyillari asosida jalb etish mexanizmlarini hisoblanadi. |


Amalga oshirgan tadqiqotlarimiz natijasi ko'rsatdiki, xorijlik olimlar tomonidan investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlari alohida

⁷ Muallif tomonidan shakllantirildi.

⁸ Borovskiy A.I. автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Механизмы финансирования инвестиций в производственный комплекс региона. С.10.

⁹ Каримов Н.Г. Иктисодий интеграциялашув шароитида инвестицияларни мoliyalashtirishning bozor mexanizmlarini жорий этиш масалалари. – Т.: Фан ва технология, 2007, 50-бет

kategoriya sifatida chuqur o'rganilmagan, ko'p hollarda bozor mexanizmlari emas, balki moliyalashtirishning barcha usullari to'g'risida fikrlar yuritilgan.



1-rasm. Mamlakatimizda investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlari¹⁰

Tadqiqot doirasida investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini 2 ga bo'lgan holda ularning subyektidan kelib chiqib, mexanizmlarni berish maqsadga muvofiq. Muallif bunday mexanizmlarni rasm shaklida ifodalagan. Mazkur mexanizmlarni quyidagi rasm ko'rinishida ishlab chiqishdan maqsad investitsiya faoliyatini moliyalashtirish subyektlari va mexanizmlarini tizimlashtirilgan holda yagona rasm asosida ko'rsatishdan iborat (1-rasm).

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, muallif ulushda ishtirok etish orqali moliyalashtirish tizimida aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil qilish bilan bog'liq, investitsiya va pay fondi, jumladan venchur fondlarini tashkil etish bilan bog'liq va mas'uliyati cheklangan jamiyati tashkil qilish bilan bog'liq tarkibiy qismlarni keltirgan. Shuningdek, qarz instrumentlari orqali moliyalashtirish tizimida esa xo'jalik jamiyati (AJ, MChJ), davlat unitar korxonasi, davlat, lizing tashkiloti, investitsiya kompaniyasi, bank va mikromoliya tashkilotlari qarz instrumentlari bilan bog'liq tarkibiy qismlar ishlab chiqildi.

Investitsiya faoliyatini huquqiy jihatdan ta'minlash dolzarb masala ekanligini e'tiborga olib, investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. 1991-yildan 2022-yilning 1-noyabriga qadar 632 ta normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan 12 ta O'zbekiston Respublikasining qonunlari, 153 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, 259 ta Vazirlar Mahkamasining qarorlari va 208 ta boshqa hujjat qabul qilingan. Investitorlarga qulaylik yaratish uchun 263 ta normativ-huquqiy hujjat alohida guruhlariga bo'linib, kompleks guruhga 21 ta, dasturiy guruhga 20 ta, sohasiy guruhga 18 ta, tashkiliy guruhga 51 ta, operativ guruhga 153 ta hujjat kiritildi.

¹⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarida markazlashgan manbalar mablag‘lari salmog‘i katta bo‘lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida aksincha markazlashmagan va xususiy moliyalashtirish manbalari mablag‘lari hisobidan investitsiyalarni moliyalashtirish maqsadga muvofiq.

Dissertatsiyaning **“Mamlakatimizda investitsiya faoliyatini moliyalashtirish bozor mexanizmlarining amaldagi holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekistonda investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda bozor mexanizmlarining bugungi kundagi holati tahlili va investitsiyalarni moliyalashtirishning ilg‘or xorij tajribalari o‘rganilib, investitsiyalarni moliyalashtirishning mamlakat iqtisodiyoti rivojiga ta‘sirining ekonometrik tahlilari asosida ularni O‘zbekiston amaliyotida qo‘llash imkoniyatlari keltirib o‘tilgan.

Olib borilgan tadqiqotlar ko‘rsatdiki, O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini yanada takomillashtirishda davlatning bevosita investor sifatidagi roli va hissasi kamayib, xususiy investorlarning o‘rni tobora taraqqiy etayotganini kuzatish mumkin. Bu esa o‘z navbatida, yangi moliyalashtirish manbalari, qulay investitsiya muhiti, investitsiya infratuzilma subyektlari, ya‘ni tijorat banklari, yangi moliya-kredit investitsiya institutlarining shakllanishi bilan ifodalanadi (2-jadval)

2-jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda davlat byudjetidan moliyalashtirish hajmi 2005-yilga nisbatan qariyb 5,3 foizga kamaygan va aksincha, xorijiy investitsiyalar va kreditlari hajmi 20,6 foizga oshgan.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari hamda korxonalar va aholining o‘z mablag‘lari, bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari va xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan moliyalashtirilishini tahlil qilib, 2021-yilda o‘z mablag‘lar va qarz mablag‘larining hissasi 88,3 foizni tashkil etib, 2005-yilga nisbatan 5,3 foizga ko‘payganligini ko‘rish mumkin.

2-jadval

2005-2021-yillar davomida moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar¹¹, % da

| № | Moliyalashtirish manbavi | 2005-y. | 2010-y. | 2015-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2021-y. |
|----|--|---------|---------|---------|---------|---------|---------|
| 1. | Davlat byujeti | 12,2 | 5,2 | 4,2 | 9 | 6,8 | 9,3 |
| 2. | Davlat maqsadli va boshqa jamg‘armalar | 4,8 | 6,9 | 10,1 | 4,3 | 2,1 | 2,4 |
| 3. | Korxonalar va aholining o‘z mablag‘lari | 57,5 | 52,5 | 56,2 | 29,3 | 40,8 | 38 |
| 4. | Bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari | 3,8 | 9,0 | 11,0 | 13,8 | 7,6 | 8 |
| 5. | Xorijiy investitsiya va kreditlar | 21,7 | 26,4 | 18,5 | 43,6 | 42,7 | 42,3 |

¹¹“O‘zbekiston raqamlarda 2019-2020”, statistik to‘plam, Davlat statistik qo‘mitasi, 2022-y. 184-b.

Shuningdek, 3-jadvalda tijorat banklari kreditlari, aksiyalar va korporativ obligatsiyalar hajmining yalpi ichki mahsulot va asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarga nisbati hisoblab chiqildi. 2021-yilda yalpi ichki mahsulot va asosiy kapitalga investitsiyalar tegishli 734,6 trln so'm va 239,6 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, tijorat banklari kreditlari – 22,7 va 69,6 foizni, aksiyalar chiqarilishi – 0,5 va 1,5 foizni, korporativ obligatsiyalar chiqarilishi – 0,07 va 0,21 foizni tashkil etdi.

Muallifning fikricha, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha ulushda ishtirok etish orqali investitsiya faoliyatini moliyalashtirish holatini tahlil qilishni maqsadga muvofiq. Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda investitsiya faoliyatini moliyalashtirish aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan aksiyalarni chiqarish va ularni fond bozorida joylashtirish orqali amalga oshiriladi.

3-jadval

Asosiy ko'rsatkichlarga nisbatan asosiy moliyalashtirish manbalarining nisbati¹², trln. so'm

| № | Asosiy ko'rsatkichlar | 2017-y. | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2021-y. |
|------|--|---------|---------|---------|---------|---------|
| 1. | YalM | 302,6 | 407,5 | 511,9 | 602,2 | 734,6 |
| 2. | Asosiy kapitalga investitsiyalar | 72,1 | 124,2 | 195,9 | 210,2 | 239,6 |
| 2.1. | YalMga nisbatan foizda | 23,8 | 30,47 | 38,26 | 34,9 | 32,6 |
| 3. | Tijorat banklarining kreditlari | 56,4 | 96,2 | 130,0 | 127,0 | 166,7 |
| 3.1. | YalMga nisbatan foizda | 21,9 | 23,6 | 23,5 | 21,0 | 22,7 |
| 3.2. | Asosiy kapitalga investitsiyalarga nisbatan foizda | 78,2 | 77,4 | 61 | 60 | 69,6 |
| 4. | Aksiyalar chiqarilishi | 18,2 | 10,8 | 39,8 | 50,3 | 3,5 |
| 4.1. | YalMga nisbatan foizda | 6 | 2,6 | 7,8 | 8,35 | 0,5 |
| 4.2. | Asosiy kapitalga investitsiyalarga nisbatan foizda | 25,4 | 8,7 | 20,3 | 23,9 | 1,5 |
| 5. | Korporativ obligatsiyalar chiqarilishi | 0,2 | 0,2 | 0,3 | 0,1 | 0,5 |
| 5.1. | YalMga nisbatan foizda | 0,07 | 0,05 | 0,05 | 0,016 | 0,07 |
| 5.2. | Asosiy kapitalga investitsiyalarga nisbatan foizda | 0,28 | 0,16 | 0,15 | 0,04 | 0,21 |

Aksiyadorlik jamiyatlarining soni va ular tomonidan muomalaga chiqarilgan aksiyalarning qiymati bu mexanizm orqali qancha darajada investitsiyalar jalb etilganligini ko'rsatadi. Shu maqsadda, tadqiqotda oxirgi 20 yilda, ya'ni 2002-2021-yillar mobaynida aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan aksiyalarni chiqarish holatini tahlil qilish maqsadga muvofiq deb hisoblandi (4-jadval)

4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2021-yil yakuni bo'yicha aksiyadorlik jamiyatlarining soni 2002-yilga nisbatan 7,8 barobarga qisqargan bo'lsada, ular aksiyalarining nominal qiymati qariyb 81 barobarga oshgan.

¹²Markaziy bank, Statistika agentligi va Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

4-jadval

2002-2021-yillar davomida aksiyadorlik jamiyatlari soni va ularning aksiyalari¹³

| № | Yil | Aksiyadorlik jamiyatlari soni | | | Aksiyalar nominal qiymati | |
|----|------|-------------------------------|------------------------------|-------------------------|---------------------------|-------------------------------|
| | | Jami | shundan davlat ulushi mavjud | | Jami, mlrd. so'mda | Shundan davlat ulushi, foizda |
| | | | Soni | Jamiga nisbatan, foizda | | |
| 1. | 2002 | 4 716 | 2 660 | 56,40 | 1 895,60 | 46,1 |
| 2. | 2007 | 1 925 | 486 | 25,25 | 3 255,80 | 58,60 |
| 3. | 2012 | 1 276 | 426 | 33,39 | 9 111,48 | 53,42 |
| 4. | 2017 | 606 | 177 | 29,21 | 48 631,73 | 79,12 |
| 5. | 2021 | 607 | 234 | 38,55 | 153 047,94 | 81,88 |

Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlaridan yana biri investitsiya va pay fondlari, jumladan venchur fondlari hisoblanadi. "Investorlarning pul mablag'larini va qo'yilmalarini investitsiya aktivlariga jalb etish maqsadida aksiyalar chiqaradigan yuridik shaxs – aksiyadorlik jamiyati investitsiya fondidir"¹⁴.

5-jadval

2017-2021-yillar davomida investitsiya fondlari va ularning aksiyadorlari¹⁵

| № | Yillar | Investitsiya fondi portfeli, mlrd so'm | Aksiyadorlar soni | |
|----|--------|--|-------------------|-----------------------|
| | | | jami | shu jumladan jismoniy |
| 1. | 2017 | 6,3 | 49 767 | 49 723 |
| 2. | 2018 | 6,4 | 49 744 | 49 706 |
| 3. | 2019 | 6,37 | 49 727 | 49 692 |
| 4. | 2020 | 6,9 | 49 718 | 49 683 |
| 5. | 2021 | 7,0 | 49 713 | 49 676 |

5-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, investitsiya fondlarining investitsiya portfeli va aksiyadorlari soni deyarli o'zgarmagan, bu mexanizm orqali fuqarolarning investitsiyalarini jalb etish bo'yicha yetarli chora-tadbirlar amalga oshirilmagan. Shuningdek, investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlaridan yana biri mas'uliyati cheklangan jamiyat tomonidan ustav fondini oshirish hisobiga investitsiyalarni jalb etish bo'lib, oxirgi besh yilda ular sonini tahlil qilinganda, mazkur shakl tadbirkor va investorlar uchun jozibador ekan degan xulosaga kelindik. Masalan, 2017-yil yakuni bo'yicha respublikada 143 103 ta mas'uliyati cheklangan jamiyati faoliyat yuritib, 2021-yil yakuni bo'yicha ularning soni 316 903 taga yoki 2,2 barobarga¹⁶ oshganini ko'rish mumkin.

¹³ Qiimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi "Qiimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonunning 29-moddasi

¹⁵ www.deponet.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.


¹⁶ Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

6-jadval

**Jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i to'g'risida
(kreditlar turlari bo'yicha) ma'lumot¹⁷**

| Ko'rsatkichlar | 2017-y. | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2021-y. | |
|--|---------|---------|---------|---------|---------|---------------------|
| | | | | | qoldiq | 2019-yilga nisbatan |
| Jami kredit qoldig'i | 110 572 | 167 391 | 211 581 | 276 975 | 326 386 | 154,3% |
| Jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit qoldig'i | 13 600 | 24 427 | 39 934 | 54 888 | 69 496 | 174,0% |
| Ipoteka kreditlari | | | 20 326 | 28 301 | 35 946 | 176,8% |
| Mikroqarz | | | 3 177 | 5 737 | 9 429 | 296,8% |
| Iste'mol kreditlari | | | 9 963 | 12 237 | 12 795 | 128,4% |
| Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar | | | 6 467 | 8 613 | 11 326 | 175,1% |
| Yuridik shaxslarga ajratilgan kredit qoldig'i | 96 972 | 142 964 | 171 647 | 222 087 | 256 889 | 149,7% |
| Kredit tashkilotlari bo'lmagan yuridik shaxslarga kreditlar | | | 156 375 | 203 386 | 237 594 | 151,9% |
| Lizing va faktoring | | | 2 225 | 2 434 | 2 351 | 105,7% |
| Banklararo kreditlar | | | 1 597 | 1 770 | 1 704 | 106,7% |
| Mikrokredit | | | 9 211 | 10 647 | 10 645 | 115,6% |
| Sinditsiyalashtirilgan kreditlar | | | 2 238 | 3 851 | 4 595 | 205,3% |

Jahon tajribasiga ko'ra, hozirgi global iqtisodiy o'sish uchun faqat jamg'arish va investitsiyalarning yuqori sur'atlari yetarli emas. O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi 2000-yilga nisbatan 2021-yilda 20 barabarga oshgan.



2-rasm. Global to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi, mlrd. AQSh dollarida¹⁸

¹⁷Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi

Shu bilan birga, COVID-19 pandemiyasi O'zbekistonga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. 2019-yilda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi 2,3 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatkich 1,7 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilgan yoki 26 foizga pasaygan. 2021-yilda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi 2,0 mlrd. AQSh dollariga yetgan.

To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etishda xususiylashtirish jarayonlari, shu jumladan uning uslublari muhim rol o'ynaydi.

Investitsiyalarni moliyalashtirishning ilg'or xorij tajribalari bo'yicha olib borgan tadqiqotlar ko'rsatdiki, xalqaro tajribada xususiylashtirishning 4 tadan 10 tagacha uslubi qo'llaniladi. Jumladan Germaniya va Bolgariyada (6 tadan), Chexiyada (7 ta) va Polshada (10 ta).

Muallif olib borgan tadqiqotlar quyidagi jadvalda guruhlashtirilgan (7-jadval).

7-jadval

Xususiylashtirish uslublari bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi

| № | Polsha | Germaniya | Chexiya | Bolgariya |
|-----|---|--|--|--|
| 1. | Auksion | Auksion | Auksion | Auksion |
| 2. | Tanlov | Tender | Tender | Tender |
| 3. | Muzokaralarga ommaviy taklif qilish yo'li bilan sotish | Muzokaralarga ommaviy taklif qilish yo'li bilan sotish | Naqd pul evaziga tanlov | Muzokaralarga ommaviy taklif qilish yo'li bilan sotish |
| 4. | Aksiyalarni ommaviy joylashtirish | Aksiyalarni ommaviy joylashtirish | Aksiyalarni ommaviy joylashtirish | Aksiyalarni ommaviy joylashtirish |
| 5. | Korxonani kompaniya ustav fondiga kiritish orqali sotish | Korxonani kompaniya ustav fondiga kiritish orqali sotish | | |
| 6. | Korxonani pullik foydalanishga berish orqali keyinchalik sotish | | | |
| 7. | Munitsipallashtirish | | | |
| 8. | Milliylashtirilgan mulkni sobiq egalari qaytarish | Milliylashtirilgan mulkni sobiq egalari qaytarish | Milliylashtirilgan mulkni sobiq egalari qaytarish | |
| 9. | Qarzni aksiyaga almashtirish | | Ommaviy xususiylashtirish (kuponovka) | Guruhli xususiylashtirish |
| 10. | Korxonani boshqaruvchisi tomonidan aksiyani sotib olish | | Korxonani xodimlari tomonidan aksiyani sotib olish | Maqsadli xususiylashtirish |

Xalqaro tajribaga ko'ra, yirik korxonalarni sotish – birlashtirish va qo'shib olishlar (Mergers and Acquisitions – M&A) usulida amalga oshiriladi.

“Rotschids&Co”, “JP Morgan”, “Credit suisse” investitsiya banklari, “Price waterhaus coopers”, “KPMG” va boshqa xalqaro konsalting kompaniyalari – yirik davlatga tegishli kompaniyalarni strategik investorlarga sotish vazifasi qo‘yilganda jarayonni M&A amaliyoti prinsiplari doirasida tashkil etadi. Bunda, sotuvchi o‘z manfaatlari va ko‘zlagan maqsadidan kelib chiqib, jarayonni, muzokaralarni to‘xtatishi yoki oldi-sotdi shartnomasini tuzishdan istalgan paytda voz kechish huquqini saqlab qoladi.

Mazkur usul Oshkora taklif asosidagi muzokaralar usuli (Peregovory na osnove publichnogo priglaseniya) deb atalib, G‘arbiy Yevropa va ko‘pchilik Sharqiy Yevropa mamlakatlarining xususiylashtirish amaliyotida keng qo‘llanadi. Polshaning 1996-yil 30-avgustdagi “Davlat korxonalarini xususiylashtirish va tijoratlashtirish to‘g‘risida”gi qonunining 33-moddasida “Oshkora taklif asosidagi muzokaralar usuli” ko‘rsatib o‘tilgan.

Polshada 1990-2000-yillarda sotilgan 272 ta korxonaning aksiya paketlaridan 181 tasi Oshkora taklif asosidagi muzokaralar usuli orqali sotilgan, taqqoslash uchun – 44 tasi birja savdolarida, 47 tasi – tender orqali sotilgan.

Mazkur uslubning jozibadorligi shundaki, sotuvchi aktivning narxi va uni sotishning eng yaxshi, eng to‘g‘ri shartlari to‘g‘risidagi ma‘lumotni bozorning o‘zidan oladi, ya‘ni boshlang‘ich narxni e‘lon qilmagan holda investorlar takliflarini o‘rganib chiqadi.

Muallifning fikricha, O‘zbekistonda xususiylashtirish jarayonlari ancha jonlangan paytda savdo uslublarini takomillashtirish, jumladan davlat aktivlarini xususiylashtirishda ularning boshlang‘ich narxini e‘lon qilmagan holda talabgorlarni muzokaralarga ommaviy taklif qilish yo‘li bilan, shu jumladan professional tashkilotlarni jalb etgan holda sotish uslubini joriy etish maqsadga muvofiq.

Xorijiy tajriba bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlardan kelib chiqib, O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar bozorida dividend va foiz tarzidagi daromadlarni soliqdan ozod qilish va kreditda (qarzda) ishtirok etishni moliyalashtirish to‘g‘risidagi shartnomani joriy etish maqsadga muvofiq. Ushbu takliflarni amalga oshirish natijasida, moliyalashtirish manbalari kengayadi va mablag‘larni jalb qilish narxi nisbatan arzonroq bo‘ladi.

Bugungi kunda kapitallarning xalqaro harakati jarayonlarini o‘rganish jahon iqtisodiyotini moliyalashtirish sharoitida eng katta qiziqish uyg‘otib kelmoqda. Tadqiqotlar asosida milliy iqtisodiyotda investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini tatbiq etishning ekonometrik modellari ishlab chiqildi.

